

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI

AHOLI DAROMADLARI O‘ZGARISHINI OZIQ-OVQAT
XAVFSIZLIGIGA TA‘SIRINING NAZARIY ASOSLARI

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Economical Science**

Shomurodov Tohir Boymurod o'g'li

Aholi daromadlari o'zgarishini oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirining nazariy
asoslari..... 3

Шомуродов Тохир Боймурод угли

Теоретические основы влияния изменений доходов населения на
продовольственную безопасность 27

Shomurodov Tokhir Boymurod ugli

Theoretical Foundations of the Impact of Changes in Population Income on
Food Security..... 53

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI

**AHOLI DAROMADLARI O‘ZGARISHINI OZIQ-OVQAT
XAVFSIZLIGIGA TA‘SIRINING NAZARIY ASOSLARI**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTORERATI**

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt. raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim tarmog‘ida (www.zivonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Suyun Artikovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nabiyev Elshod Ganiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Murodova Nodira Kulliyevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Xalqaro Nordik Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “19” 08 soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdu@tdiu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1715 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdu@tdiu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “4” 08 kuni tarqatildi.
(2025-yil “4” 08 dagi 81 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

B.E. Mamaraximov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
Ilmiy kotibi, i.f.n., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi (FAO) tashkilotining dunyo bo‘ylab oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish holati borasidagi so‘nggi hisobotiga ko‘ra, 2024-yilda 713 milliondan 757 milliongacha odam ochlik muammosiga duch kelgan. Bu raqamlar shuni anglatadiki, dunyo miqyosida taxminan har o‘n birinchi kishidan biri, Afrikada esa har beshinchi kishi oziq-ovqat xavfsizligi muammosiga duch kelgan. Bundan tashqari, 2,4 milliardga yaqin odam oziq-ovqat xavfsizligining o‘rtacha yoki og‘ir darajasi bilan o‘lchanadigan oziq-ovqat mahsulotlariga yetishmovchiligini boshdan kechirdi. Ular orasida 900 millionga yaqin odam oziq-ovqat taqchilligining og‘ir darajasiga duch kelmoqda¹.

Global miqyosda ortib borayotgan integratsiya jarayonlari sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Turli xil ekologik, iqlimiy va iqtisodiy omillar oziq-ovqat yetishtirish, taqsimlash va iste‘mol jarayonlariga ta‘sir ko‘rsatib, dunyo miqyosida oziq-ovqat ta‘minoti barqarorligiga xavf tug‘dirmoqda. Shu sababli, oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar aholining barqaror oziq-ovqat manbalariga ega bo‘lishini ta‘minlash, ovqatlanish darajasidagi tengsizliklarni hamda qashshoqlikni kamaytirish kabi muhim jihatlarga qaratilgan. Bu boradagi tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishi, oziq-ovqat ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlarini optimallashtirish, qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza va organik mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, global iqlim o‘zgarishlari va tabiiy ofatlarning oziq-ovqat ta‘minotiga ta‘sirini kamaytirish kabi masalalar ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarda ustuvor yo‘nalishlar hisoblanadi.

O‘zbekistonda aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlarini iste‘mol qilish ko‘rsatkichlari turli toifadagi mahsulotlar bo‘yicha farqlanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, un va non mahsulotlari, to‘yingan yog‘lar, osh tuzi, shakar hamda go‘sht iste‘moli Osiyo va global o‘rtacha darajadan yuqoridir. Biroq dukkakli va don mahsulotlari, meva hamda rezavorlar, yong‘oqlar iste‘moli esa tavsiya etilgan me‘yordan past ekani aniqlangan. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi hisobotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda me‘yordan past ovqatlanish tufayli yuzaga kelayotgan yashirin xarajatlar 7,3 trillion so‘mni tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘rtacha hisobda 3,5 baravar yuqoridir². Yuqoridagi mummolarni inobatga olgan holda, O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi sohasida ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, aholining xarid qobiliyatini oshirish, qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish va raqobatbardosh oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari, aholining sog‘lom ovqatlanish madaniyatini oshirish, oziq-ovqat tannarxini pasaytirish, tibbiy xizmatlar va ovqatlanish sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni

¹ <https://www.un.org/ru/global-issues/food>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2024-yildagi PF-36-son “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://www.lex.uz/docs/-6802687>

kuchaytirish, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ilmiy yondashuvlarni keng joriy etish kabi vazifalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-son "Minimal iste'mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to'g'risida"gi, 2021-yil 29-martdagi PQ-5041-son "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 26-apreldagi PQ-3680-son "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini tahlil qilish nafaqat milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, balki aholining sifatli va yetarli darajada oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishiga erishish nuqtayi nazaridan ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri ichki ishlab chiqarishni rag'batlantirish, mahalliy qishloq xo'jaligi sektorining samaradorligini oshirish va oziq-ovqat mahsulotlarining o'z-o'zini ta'minlash darajasini ko'tarishdir.

Mazkur yo'nalishda dunyo va milliy miqyosda ko'plab iqtisodchi olimlarning tadqiqotlari muhim o'rin egallaydi. G'arb olimlaridan T.Maltus, A.Sen, E.Engel, V.Tarasuk, T.Reardon, P.Matlon, T.Maslou, G.Maksvel kabi olimlar ushbu yo'nalsidagi izlanishlarni rivojlanishiga ulkan hissa qo'shganlar³.

³ Мальтус Т.-Р. Опыт закона о народонаселении / Издание К.Т.Солдатенкова / Перевод И.А.Вернера. – М.: Типо-литография О.И.Лашкевич и Ко. Тверская, Домъ Саввинского подворья, 1895. – С. 9-12; Sen A. Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. – Oxford: Oxford University Press, 1981; Engel E. (1857). Die Productions- und Consumptionsverhältnisse des Königreichs Sachsen. Zeitschrift des Statistischen Bureaus des Königlich Sächsischen Ministeriums des Innern; Tarasuk V., J.Cheng, C.De Oliveira, N.Dachner, C.Gundersen and P.Kurdyak. 2015. "Association between Household Food Insecurity and Annual Health Care Costs // Canadian Medical Association Journal, 2015. – № 187 (14). E 429-E 436 // <https://doi.org/10.1503/cmaj.150234>; Reardon T. and Matlon P.M. (1989) 'Seasonal Food Insecurity and Vulnerability in Drought-Affected Regions of Burkina Faso' in D. Sahn (Ed.), Causes and Implications of Seasonal Variability in Household Food Security, Johns Hopkins University Press, Baltimore MD; Maslow A.H. A theory of human motivation // *Psychological Review*, 1943. – № 50 (4). – P. 370-396 // <https://doi.org/10.1037/h0054346>; Daniel G. Maxwell, Measuring food insecurity: the frequency and severity of "coping strategies" // *Food Policy*, 1996. Volume 21. Issue 3. – P. 291-303. ISSN 0306-9192 // [https://doi.org/10.1016/0306-9192\(96\)00005-X](https://doi.org/10.1016/0306-9192(96)00005-X);

Ushbu mavzudagi izlanishlar ko‘plab MDH olimlari tomonidan o‘rganilgan, jumladan, L.I.Abalkin, A.I.Altuxov, S.Yu.Glazyev, A.G.Paptsov, A.I.Trubilin, I.G.Ushachev, N.D.Avarskiy, A.N.Gerasimov, E.V.Zakshevskaya, A.D.Kotenev, B.Melnikov, P.V.Mikhaylushkin, V.I.Nechayev, A.L.Poltaryxin, M.V.Suleymanov, I.F.Suxanova, V.I.Trtsyachniy, V.Ya.Uzun, L.N.Usenko, A.V.Xarlamov, M.A.Xolodova kabi rus iqtisodchilarning izlanishlari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini qo‘llab-quvvatlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash borasida nazariy hamda amaliy asoslarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan⁴.

Milliy miqyosda aholi daromadlari va oziq-ovqat xavfsizligi muammolari
H.P.Abulqosimov, T.S.Rasulov, S.R.Topildiyev, Yo.Abdullayev,

⁴ Абалкин Л.И. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение // Вопросы экономики, 1994. – № 12. – С. 4-16; Алтухов А.И. Предотвращение рисков и угроз обеспечения продовольственной безопасности – необходимое условие пространственного развития сельского хозяйства // Вестник Курской государственной сельскохозяйственной академии, 2018. – № 7. – Р. 150-158; Глазьев С.Ю. Безопасность экономическая // Политическая энциклопедия. Т. 1. – М.: Мысль, 1999. – С. 113-117; Папцов Андрей Геннадьевич. ТЕНДЕНЦИИ ГЛОБАЛЬНОГО ПРОДОВОЛЬСТВЕННОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ // Научные труды Вольного экономического общества России. – М., 2021. Vol. 230. – № 4. – Р. 285-296; Трубилин А.И. Интенсификация – основа развития сельской экономики России / А.И.Трубилин, А.Б.Мельников, П.В.Михайлушкин, В.В.Сидоренко // Международный сельскохозяйственный журнал, 2018. – № 1. – С. 14-19; Ушачёв И.Г. Продовольственная безопасность – объективная необходимость / И.Г.Ушачёв, А.И.Алтухов, А.Ф.Серков, С.М.Сухов, В.И.Нечаев // Экономика сельского хозяйства России, 2008. – № 7. – С. 44-54; Аварский Н.Д. Продовольственная безопасность стран ЕАЭС: проблемы и возможности / Н.Д.Аварский, С.Н.Серегин // В сборнике: Аграрная политика России в условиях международной и региональной интеграции. Труды Международной научно-практической конференции, посвященной 85-летию Всероссийского научно-исследовательского института экономики сельского хозяйства, 2015. – С. 24-32; Герасимов А.Н. Диагностика региональной экономической и продовольственной безопасности / А.Н.Герасимов, О.П.Григорьева, Е.И.Капустина // Вестник Института дружбы народов Кавказа (Теория экономики и управления народным хозяйством). Экономические науки, 2018. – № 4 (48). – С. 12; Закшевская Е.В. Зеленая экономика и продовольственная независимость как фактор роста обеспечения социально-экономической стабильности в стране / Е.В.Закшевская / В сборнике: Управление инновационным развитием агропродовольственных систем на национальном и региональном уровнях. Материалы II международной научно-практической конференции, 2020. – С. 3138; Котенев А.Д. Качество жизни как важнейший показатель продовольственной безопасности государства (на примере концепции Innocenti) / А.Д.Котенев, С.И.Атмачев, Ю.А.Бурлова // Kant, 2021. – № 2 (39). – С. 72-76; Мельников А.Б. Продовольственная безопасность – основа обеспечения экономической безопасности России / А.Б.Мельников, Е.И.Артемова, И.А.Бурса, Б.А.Мельников // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки, 2012. – № 3. – С. 189-194; Михайлушкин П.В. Эффекты от продуктовых санкций в контексте стратегического развития АПК / П.В.Михайлушкин, Д.М.Пресняков // В сборнике: Научное обеспечение агропромышленного комплекса. Сборник статей по материалам 72-й научно-практической конференции преподавателей по итогам НИР за 2016 г. – С. 593-594; Нечаев В.И. Государственное регулирование агропродовольственного рынка – основа продовольственной безопасности России / В.И.Нечаев, Д.Х.Хатуов, С.Д.Фетисов, А.В.Чемеричко // Труды Кубанского государственного аграрного университета, 2009. – № 19. – С. 7-12; Полтарыхин А.Л. Продовольственная безопасность России в условиях введения санкций / А.Л.Полтарыхин // Вестник Академии, 2015. – № 1. – С. 33-38; Сулейманов М.В. Экономическая безопасность регионов как основа безопасности страны / М.В.Сулейманов // Право и безопасность, 2009. – № 4. – С. 67-70; Суханова И.Ф. Импортзамещение как основа достижения продовольственной безопасности страны / И.Ф.Суханова, М.Ю.Лявина // Аграрный научный журнал, 2015. – № 3. – С. 93-99; Трысячный В.И. Моделирование эффективности государственной поддержки регионального АПК в контексте обеспечения продовольственной безопасности / В.И.Трысячный, Б.А.Мельников, П.Н.Широв // Финансовая экономика, 2020. – № 12. – С. 190-193; Узун В.Я. Продовольственная безопасность в условиях пандемии: риски и меры по их снижению / В.Я.Узун // Научные труды Вольного экономического общества России, 2020. Т. 223. – № 3. – С. 502-514; Усенко Л.Н. Продовольственная безопасность как фактор продовольственного обеспечения России / Л.Н.Усенко // В сборнике: Продовольственное обеспечение регионов Российской Федерации: теория, методология, практика. Материалы Международного круглого стола, 2010. – С. 42-48; Харламов А.В. Инструменты стимулирования инновационного развития экономики в условиях кризиса / А.В.Харламов // Экономика и управление, 2009. – № 10 (48). – С. 26-29; Холодова М.А. Региональные аспекты обеспечения продовольственной безопасности / М.А.Холодова // Никоневские чтения, 2019. – № 24. – С. 219-222.

Q.X.Abdurahmonov, R.R.Xasanov, N.Zokirova, E.Taganov, O.G.Fedorova, V.Lipatov, B.Berkinov, A.N.Nurmatov, A.Ablaizov va boshqa mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy tadqiqotlarida mazkur masala yoritilgan⁵, biroq aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini tartibga solishdagi muammolar doirasida oziq-ovqat xavfsizligining nazariy asoslari kompleks yondashuvda yetarlicha o'rganilmagan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash strategiyasini shakllantirish bo'yicha hali to'liq yechimini topmagan muhim jihatlar mavjud. Xususan, aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri hali yetarlicha o'rganilmagan. Bir tomondan, aholining daromadlari oshishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni orttirishi mumkin, bu esa ishlab chiqarish hajmini kengaytirishga turtki beradi. Boshqa tomondan esa, importga qaramlik darajasini saqlab qolgan holda, ichki ishlab chiqarishning o'sish imkoniyatlarini oshirish zarurati yuzaga keladi. Aynan shu jihatlar mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aholi daromadlari o'zgarishini oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirining nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda daromadlar darajasi bilan bog'liq tadqiqotlarni o'rganish va adabiyotlar sharhini amalga oshirish;

oziq-ovqat narxlarining aholi daromadlari va oziq-ovqat iste'moliga ta'sirini iqtisodiy tahlil qilish;

oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda rivojlangan mamlakatlarning amaliyoti va ularning O'zbekiston uchun ahamiyatini o'rganish;

⁵ Абулкосимов Х.П Давлатнинг иқтисодий хавфсизлиги. Ўқув қўлланма. – Т.: Академија, 2012. – 351 б.; Расулов Т.С. Озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўналишлари. Монография. – Т.: Fan va texnologiya, 2017. – 152 б.; Topildiyev S.R. Agrar munosabatlarni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. d-ri ... dis. – Т.: Tipograff, 2023. – 70 б.; Abdullayev Yo.A. Makroiqtisodiy statistika. 100 savol va javob. – Т.: Mehnat, 1998. – 382 б.; Abdurahmonov Q.X., Toxirova X.T. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. O'quv qo'l. – Т.: TDIU, 2019; Xasanov Rустам Раббимович Ижтимоий-иқтисодий тараққиётда хонадоннинг ўрни // Экономика и финансы (Узбекистан), 2015. – № 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/izhtimoiy-iqtisodiy-tara-iyotda-honadonning-rni> (дата обращения: 01.05.2025); Zokirova N. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. – Т.: Fan va texnologiya, 2009; Taganov E. O'zbekistonda daromadlar tengsizligi: ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar va yumshatish mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020; Fedorova O.G. O'zbekistondagi aholi: postsovet hududida uning tarixiy va huquqiy tahlili muammolari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018; Lipatov, V. Daromadlar tengsizligi va O'zbekiston iqtisodiyotida o'rta sinfni taqsimlash masalasi to'g'risida. – Toshkent: Iqtisodiyot fanlari markazi, 2020; Berkinov B.B. Problems of food security in Uzbekistan // International Journal of Research in Management & Finance, 2021. Retrieved from [https://www.ijirmf.com\(https://www.ijirmf.com/wpcontent/uploads/IJIRMF202106004.pdf?\)](https://www.ijirmf.com(https://www.ijirmf.com/wpcontent/uploads/IJIRMF202106004.pdf?)); Nurmatov A.N. International cooperation in food security in Uzbekistan // International Journal on Integrated Education, 2020. – № 2 (5). – P. 87-90 // <https://doi.org/10.17605/ijie.v2i5.177>; Ablaizov A. & Lochinov H. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tengsizligining kelib chiqish sabablari // Академические исследования в современной науке, 2024. – № 3 (14). – С. 20-24. Извлечено от <https://econferences.ru/index.php/arims/article/view/14806>

O‘zbekistonda aholi daromadlari va oziq-ovqat xavfsizligining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

daromadlar darajasini oshirish orqali oziq-ovqat iste'moliga teng imkoniyatlar yaratish bilan bog'liq muammolarini tadqiq etish;

turli xil daromadlar darajasiga ega uy xo'jaliklari o'rtasidagi oziq-ovqat iste'molidagi asosiy farqlarni aniqlash;

global ochlik indeksini hisoblash orqali oziq-ovqat xavfsizligini hisoblash;

O‘zbekistonda uy xo'jaliklari oziq-ovqat xavfsizligi va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ular o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish;

O‘zbekistonda uy xo'jaliklari daromadlarini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining mexanizmlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston Respublikasi aholisi daromadlari o'zgarishini oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini oshirish bilan bog'liq hodisa va jarayonlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda daromadlar darajasiga ustuvorlik berish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar sanaladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarishda ilmiy mushohada, statistik guruhlash, qiyosiy va tizimli tahlil, ilmiy mantiqiy umumlashtirish, matematik modellashtirish, ekonometrik tahlil hamda prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nazariy jihatdan “Oziq-ovqat xavfsizligi” tushunchasiga aholining faol kundalik hayot tarziga erishishi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini faqatgina mavjudligi bilan emas, balki aholining xarid qobiliyatini belgilangan kunlik mavjud ratsionlar asosida zarur ozuqaviy moddalarni miqdor va sifat jihatdan yetarli darajada iste'mol qilish uchun oshirish nuqtayi nazaridan yondashish orqali takomillashtirilgan mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan;

aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholash mexanizmi uy-xo'jaliklari real daromadlari oshirilishi natijasida aholi o'rtasida ovqatlanish sifatining yaxshilanishi ($0,17 \leq OS \leq 0,31$), iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi ($0,21 \leq II \leq 0,28$), inflyatsion o'zgarishlarga bardoshlilikning ortishi ($0,09 \leq IB \leq 0,13$), qashshoqlikning kamayishi ($0,11 \leq QK \leq 0,15$), sog'liq va iqtisodiy samaradorlikning ortishi ($0,16 \leq SO \leq 0,19$) omillaridagi ijobiy o'zgarishlarning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini o'rganish orqali takomillashtirilgan;

O‘zbekistonda aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholashga oid ishlab chiqilgan logistik regressiya modeli asosida aholining daromadlar bo'yicha quyi toifasidan yuqori toifasiga o'tkazilishi orqali oziq-ovqat xavfsizligi darajasini ($45 \% \leq XD \leq 55 \%$) oshirish taklifi asoslangan;

Respublikada ochlik indeksining oziq-ovqat mahsulotlari narxlari darajasi hamda tasarrufidagi daromad ta'siri natijasida o'zgarishi chiziqli ekstrapolyatsiya va VAR ekonometrik modellari asosida 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aholi daromadlari o'zgarishini oziq-ovqat xavzligiga ta'sirini baholash maqsadida so'rovnoma o'tkazilib respondentlardan olingan natijalar asosida aholi daromadlari va oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan;

logit modeli yordamida aholi daromadlari, oziq-ovqat xarajatlari ulushi, oila a'zolar soni, daromad o'zgaruvchanligi, past sifatli oziq-ovqat xaridi, kabi omillarning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri baholangan;

O'zbekistonda aholi daromadlarini oshirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar tahlil qilinib, uni yaxshilash bo'yicha ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat xavfsizligi va uning uy xo'jaliklari daromadlari ta'sirida o'zgarishining alohida uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlari hisoblangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Mazkur dissertatsiya natijalari va olingan ilmiy yangiliklarning ishonchligi tadqiqotni bajarishda umume'tirof etilgan usul hamda uslubiyatlarning qo'llanilganligi, rasmiy axborot bazalaridan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi hamda turli xalqaro tashkilotlarning rasmiy saytlari ma'lumotlaridan foydalanilgani, tadqiqot ilmiy yangiliklarining vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan ma'qullangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy qoida va xulosalardan nafaqat aholi daromadlari hamda oziq-ovqat xavfsizligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashning konseptual, uslubiy va texnologik muammolarini hal qilishda, balki daromadlar oshishi natijasida iste'mol tarkibining o'zgarishi va oziq-ovqat mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini chuqur tahlil etishda nazariy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan amaliy tavsifdagi taklif va tavsiyalardan oziq-ovqat xavfsizligini aholining xarid qobiliyatini oshirish hamda daromadlar dinamikasini inobatga olgan holda shakllantirish, oziq-ovqat bozori va iste'mol jarayonlarida ijtimoiy-iqtisodiy keskinlikni kamaytirish, davlat tomonidan qabul qilinadigan oziq-ovqat dasturlarining samaradorligini oshirish, shuningdek, kam ta'minlangan aholi qatlamlari uchun zarur oziqaviy mahsulotlar yetkazib berish tizimini takomillashtirish jarayonlarida foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aholi daromadlari o'zgarishini oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

nazariy jihatdan "Oziq-ovqat xavfsizligi" tushunchasiga aholining faol kundalik hayot tarziga erishishi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini faqatgina mavjudligi bilan emas, balki aholining xarid qobiliyatini belgilangan kunlik mavjud ratsionlar asosida zarur oziqaviy moddalarni miqdor va sifat jihatdan yetarli darajada iste'mol qilish uchun oshirish nuqtayi nazaridan yondashishga oid nazariy hamda uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlarining "Iqtisodiyot" (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiy siyosatga kirish" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 19-

maydagi 05/15-04-236-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi iqtisodiyot nazariyasini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga hamda "Iqtisodiyot" mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, magistrarlar, shuningdek, ilmiy tadqiqotchilarda "oziq-ovqat xavfsizligi" kategoriyasining iqtisodiy mazmuniga oid bilim va ko'nikmalarining rivojlanishiga hissa qo'shgan;

aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholash mexanizmi uy-xo'jaliklari real daromadlari oshirilishi natijasida aholi o'rtasida ovqatlanish sifatining yaxshilanishi ($0,17 \leq OS \leq 0,31$), iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi ($0,21 \leq II \leq 0,28$), inflyatsion o'zgarishlarga bardoshlilikning ortishi ($0,09 \leq IB \leq 0,13$), qashshoqlikning kamayishi ($0,11 \leq QK \leq 0,15$), sog'liq va iqtisodiy samaradorlikning ortishi ($0,16 \leq SO \leq 0,19$) omillaridagi ijobiy o'zgarishlarning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini o'rganish orqali takomillashtirilgan taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni 1-ilovasi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi"ning "Sog'lom iste'mol madaniyatini targ'ib qilish bo'yicha uzoq muddatli dastur ishlab chiqish" chora-tadbirini belgilashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 19-maydagi 05/15-04-236-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida respublika aholisining real daromadlari oshirilishi natijasida aholi o'rtasida ovqatlanish sifatining yaxshilanishi, iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi, inflyatsion o'zgarishlarga bardoshlilikning ortishi, qashshoqlikni kamayishi va sog'liq hamda iqtisodiy samaradorlikni ortishini ta'minlash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholashga oid ishlab chiqilgan logistik regressiya modeli asosida aholining daromadlar bo'yicha quyi toifasidan yuqori toifasiga o'tkazilishi orqali oziq-ovqat xavfsizligi darajasini ($45 \% \leq XD \leq 55 \%$) oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoniga 1-ilova "O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom oziqlanishni ta'minlashning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi"da inobatga olingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 19-maydagi 05/15-04-236-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu takliflarni amaliyotga joriy etish natijasida daromad darajasi asosida oziq-ovqat xavfsizligi holatini muntazam baholab borish, vaqtda amaliy choralarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

O'zbekistonda ochlik indeksining oziq-ovqat mahsulotlari narxlari darajasi hamda tasarrufidagi daromad ta'siri natijasida o'zgarishi chiziqli ekstrapolyatsiya va VAR ekonometrik modellari asosida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi amaliyotida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 19-maydagi 05/15-04-236-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida uzoq muddatli istiqbolda ochlik xavfi yuqori bo'lgan hududlarni oldindan aniqlab,

vaqtida choralar ko‘rish, resurslarni – xususan, oziq-ovqat zaxiralari va gumanitar yordamni – eng muhtoj hududlarga samarali taqsimlash, siyosat va rivojlanish strategiyalarini optimallashtirish, shuningdek, barqaror oziq-ovqat tizimlarini shakllantirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalari 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalarda o‘z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 153 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “Oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va aholining daromadlarini oshirishning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida “Oziq-ovqat xavfsizligi” tushunchasi haqida nazariy qarashlar evolyutsiyasi, aholi daromadlari va oziq-ovqat xavfsizligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning mexanizmlari, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda rivojlangan mamlakatlarning amaliyoti va ularning O‘zbekiston uchun ahamiyati tahlil qilingan.

Oziq-ovqat xavfsizligi – bu tushunchani to‘g‘ridan-to‘g‘ri ochlik atamasi bilan bog‘lash noto‘g‘ri qaror hisoblanishi mumkin. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) oziq-ovqat xavfsizligini shunday izohlaydilar: har bir inson doimo yetarli, xavfsiz va sog‘lom ovqatlanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerakki, bu ularga faol va sog‘lom hayot kechirishga yordam bersin⁶.

Aksincha, oziq-ovqat xavfsizligining mavjud bo‘lmasligi (ya‘ni oziq-ovqat xavfsizsizligi) insonlarning yetarli va sifatli oziq-ovqat topa olish imkoniyati mavhum bo‘lishini anglatadi⁷. Ushbu tushuncha mohiyatan oldindan mavjud bo‘ladigan xavotirli holatni ifodalab kelib, ochlik, yetarli oziqlanishning yo‘qligi va to‘yib ovqatlanmaslik esa keyinchalik namoyon bo‘ladigan oqibatlar sirasiga

⁶ World Health Organisation <http://www.who.int/trade/glossary/story028/en/>

⁷ Barrett C.B. Food Security and Food Assistance Programs. In: Gardner B. and Rauser G. (eds.) Handbook of Agricultural Economics. Department of Agriculture, Resource, and Managerial Economics. – Elsevier, Ithaca, Cornell University, 2002. – P. 1-75.

kiradi. Demak, bundan xulosa qilishimiz mumkinki, oziq-ovqat xavfsizligi ochlik muammosiga olib boradi, ular bir-birini davom ettiruvchi holatlar hisoblanadi.

T.Maltusning fikricha, aholining oziq-ovqat bilan ta'minlanishi uning yashashi uchun zaruriy shart hisoblanadi. Biroq bu ta'minot har doim ham inson hayotini normal darajada davom ettirish imkonini bermaydi. Boshqacha aytganda, insonning biologik mavjudligi har doim ham mavjud resurslarning yetarliligi bilan bog'liq emas, chunki aholining soni oshib borishi ularning yashash sharoitlarini yanada murakkablashtirishi mumkin⁸.

Maksvell o'z tadqiqotlarida oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasini kengaytirib, quyidagicha izohlaydi: oziq-ovqat ta'minoti tizimlari shunday ishlash kerakki, odamlar kelajakda yetarli oziq-ovqat topa olmaslikdan qo'rqmasinlar⁹. Uning ta'kidlashicha, oziq-ovqat xavfsizligi faqatgina kambag'al va zaif qatlamga mansub insonlar o'zlari xohlagan ovqatni barqaror ravishda topish imkoniyatiga ega bo'lgandagina ta'minlanishi mumkin.

Mag'rabi va boshqalar esa oziq-ovqat xavfsizligini shunday tariflaydilar: *"Ovqat – asosiy ehtiyoj, ehtimol, eng muhimidir"*¹⁰. Tomas Maslou ham shaxsiy ehtiyojlar piramidasida oziq-ovqatni eng muhim omil sifatida ko'rsatganligini uchratishimiz mumkin¹¹.

Ushbu ta'riflardan kelib chiqib, oziq-ovqat xavfsizligi to'rtta asosiy omilga tayanadi deb aytish mumkin:

1. Oziq-ovqatning mavjudligi – mahsulotlarning yetarli darajada ishlab chiqarilishi va bozorga yetkazilishi;

2. Oziq-ovqatga kirish imkoniyati – aholining uni xarid qilish yoki yetkazib olish imkoniyati;

3. Oziq-ovqatdan samarali foydalanish – to'g'ri ovqatlanish orqali organizmning to'yinish darajasi;

4. Barqarorlik – kelajakda ham oziq-ovqat bilan ta'minlanish ishonchligi¹².

O'zbekiston uchun ham oziq-ovqat xavfsizligi muhim masala hisoblanadi. Bu mamlakatimizning qishloq xo'jaligiga asoslangan iqtisodiyoti va aholining o'sish sur'atlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ko'plab o'zbek olimlari oziq-ovqat xavfsizligining iqtisodiy siyosat, qishloq xo'jaligi mahsuldorligi va barqaror oziq-ovqat tizimlariga ta'sir qiluvchi jihatlarini o'rganganlar. Quyidagi ilmiy tahlilda o'zbek olimlarining ushbu mavzudagi ilmiy hissalar va oziq-ovqat xavfsizligi haqidagi ta'riflarini ko'rib chiqamiz.

Oziq-ovqat xavfsizligi, odatda, oziq-ovqat mahsulotlarining yetarlicha mavjudligi, ularni sotib olish imkoniyati, to'g'ri iste'mol qilinishi va bu holatning

⁸ Мальтусъ Т.-Р. Опытъ закона о народонаселении / Издание К.Т.Солдатенкова / Перевод И.А.Вернера. – М.: Типо-литография О.И.Лашкевичъ и Ко.Тверская, Домъ Саввинскаго подворья, 1895. – С. 9-12.

⁹ Daniel G. Maxwell, Measuring food insecurity: the frequency and severity of "coping strategies" // Food Policy, 1996. Volume 21. Issue 3. – P. 291-303. ISSN 0306-9192 // [https://doi.org/10.1016/0306-9192\(96\)00005-X](https://doi.org/10.1016/0306-9192(96)00005-X).

¹⁰ Godwin Deborah D. et al. The Economics of Household Consumption, 1991 // <https://www.semanticscholar.org/paper/The-Economics-of-Household-Consumption-Godwin-Magrabi/6cf553a0ae3e3bf9617d055aa7c7b895d6595e6c>

¹¹ Maslow A.H. A theory of human motivation // Psychological Review, 1943. – № 50 (4). – P. 370-396 // <https://doi.org/10.1037/h0054346>

¹² Food and Agriculture Organization of the United Nations (2013) FAO Statistics // <http://www.fao.org/statistics/en/>

barqarorligi bilan belgilanadi. O‘zbek olimlari bu tushunchaga o‘zlarining o‘ziga xos yondashuvlarini bildirganlar (1-jadval):

1-jadval

Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasiga berilgan konseptual ta’riflar¹³

| Mualliflar | Ta’riflar |
|-------------------------------|---|
| <i>H.P.Abulqosimov (2024)</i> | Oziq-ovqat xavfsizligi aholining yetarli, sifatli va hamyonbop oziq-ovqat bilan ta’minlanishini, shu bilan birga qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy va ekologik barqarorligini ta’minlashni anglatadi ¹⁴ . |
| <i>A.Xakimov (2022)</i> | Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va sifati bilan bog‘liq qonunlar hamda standartlarni o‘rganib, ushbu yo‘nalishda davlat nazorati hamda ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi ¹⁵ . |
| <i>B.B.Berkinov (2021)</i> | Oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasini kengaytirib, unga oziq-ovqat xavfsizligi va shaxsiy ovqatlanish madaniyatini ham kiritadi. U, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi darajasini baholashda milliy va mintaqaviy ko‘rsatkichlarning muhimligini ta’kidlaydi ¹⁶ . |
| <i>E.Engel (1857)</i> | Oilaning daromadi ortishi bilan garchi oziq-ovqat xarajatlarining mutlaq miqdori oshsada, oziq-ovqatga sarflanadigan daromad ulushi kamayib boradi. Bu shuni anglatadiki, daromadi yuqori bo‘lgan xonadonlar o‘z mablag‘larining kichikroq qismini oziq-ovqatga yo‘naltiradi, bu esa ularning oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilashi mumkin ¹⁷ . |
| <i>Jahon Banki (2010)</i> | Bozor iqtisodiyoti daromadlarni teng taqsimlashga kafolat bermaydi, natijada har bir insonning oziq-ovqat xarid qilishi uchun yetarli daromadga ega bo‘lishini ta’minlamaydi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligiga erishishda qashshoqlikni kamaytirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi ¹⁸ . |
| <i>Mualliflik ta’rifi</i> | “Oziq-ovqat xavfsizligi” tushunchasi aholining faol kundalik hayot tarziga erishishi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini faqatgina mavjudligi bilan emas, balki aholining xarid qobiliyatini belgilangan kunlik mavjud ratsionlar asosida zarur ozuqaviy moddalarni miqdor va sifat jihatdan yetarli darajada iste’mol qilish uchun oshirishdir ¹⁹ . |

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligi va daromadni oshirishga qaratilgan strategiyalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kompleks yondashuv talab etadi. Shu boisdan, oziq-ovqat xavfsizligini

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁴ Hasan Pirnazarovich Abulkosimov, Olimjon Yaxshiboyevich Khamrayev & Faruddin Ilhomjonovich Eshmirzayev. FOOD SECURITY IN UZBEKISTAN // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2004. – № 5 (6). – P. 223-242. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/5001>

¹⁵ Khakimov A. Food safety measures and policies in Uzbekistan // Scientific Journal of Food Security Research, 2002.


¹⁶ Berkinov B.B. Problems of food security in Uzbekistan // International Journal of Research in Management & Finance, 2021. Retrieved from <https://www.ijirmf.com> (<https://www.ijirmf.com/wp-content/uploads/IJIRMF202106004.pdf>)

¹⁷ https://en.wikipedia.org/wiki/Engel%27s_law?utm

¹⁸ https://blogs.worldbank.org/en/developmenttalk/food-security-and-poverty-a-precarious-balance?utm_source=chatgpt.com

¹⁹ Shomurodov T.B. “Analysis of main directions of ensuring and developing food security in Uzbekistan” // Journal of Management Value & Ethics, 2021. December 24. Special Issue // <https://www.jmveindia.com/journal/December%2024%20%20Special%20Edition%202024.pdf>

mustahkamlashga qaratilgan siyosatlar nafaqat bevosita oziq-ovqat ta’minotiga, balki bandlik, moliyaviy barqarorlik, ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi omillarga ham qaratilishi lozim.



1-rasm. Aholi daromadlarini oshirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning mexanizmi²⁰.


Aholi daromadlarining oshishi iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda ijobiy natijalarga olib keladi. Bu sotib olish qobiliyatini yaxshilaydi, sifatli mahsulotlar va qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi, qashshoqlikni kamaytiradi va oziq-ovqat tanqisligini bartaraf etadi. Oziqlanish sifatining yaxshilanishi, jismoniy va aqliy rivojlanish, shuningdek, surunkali kasalliklar xavfini kamaytiradi. Qishloq xo'jaligining rivojlanishi ishlab chiqarish hajmini oshirib, ish o'rinlarini ko'paytiradi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Bu omillar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Dissertatsiya ishining **“O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash tizimining holati va aholi daromadlari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida aholi daromadlari va oziq-ovqat xavfsizligining rivojlanish tendensiyalari o‘rganilgan. Shuningdek, oziq-ovqat narxlarining aholi daromadlari va oziq-ovqat iste'moliga ta'siri iqtisodiy tahlil qilingan hamda aholi daromadlari va oziq-ovqat xavfsizligini o'rtasidagi bog'liq ekometrik baholangan.

O‘zbekistonda aholi daromadlari va oziq-ovqat xavfsizligi so‘ngi yillarda sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Iqtisodiy islohotlar natijasida daromadlarning oshishi kuzatilayotgan bo‘lsa-da, inflyatsiya va qishloq xo‘jaligi


²⁰ Rasmiy izlanishlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

mahsulotlarining narxi oshishi tufayli real daromadlar barqaror o‘shib borayotganini aytish qiyin. Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida agrar sohada samaradorlikni oshirish, import va eksport balansini saqlash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.



2-rasm. Aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o‘shish sur‘atlari (choraklik)²¹.

O‘zbekistonda o‘rtacha dietal energiya ta’minotining etarli darajasi (foizda) qanday o‘zgarganligini ko‘rsatadi. 2000-2002-yillardan boshlab, bu ko‘rsatkich 99 % bo‘lgan va keyingi yillarda asta-sekin o‘shib bordi. Masalan, 2005-2007-yillarda 107 %, 2010-2012-yillarda 125 %, 2015-2017-yillarda esa 135 % darajasiga yetdi. So‘nggi yillarda, ya’ni 2020-2022-yillarda bu ko‘rsatkich 138 %ni tashkil etdi va 2021-2023-yillarda 140 %ga ko‘tarildi (3-rasm).



3-rasm. O‘zbekistonda o‘rtacha dietal ozuqa ta’minotining yetarlilik darajasi (foizda)²².


Real daromadning kamayishi natijasida aholining oziq-ovqat iste’mol qilish odatlari o‘zgaradi. Odamlar arzon donli mahsulotlar yoki kraxmal oziq-ovqatlarga

²¹ Rasm muallif tomonidan O‘zbekiston respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

²² Rasm muallif tomonidan BMTning Oziq ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ma’lumotlari asosida tayyorlandi // <https://www.fao.org/faostat/en/#country/235>

ko‘proq e‘tibor qaratadi, bu esa odatdagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste‘molining kamayishiga olib keladi. Qo‘shimcha oziq-ovqat mahsulotlari iste‘moli ham kamayadi, natijada organizm uchun zarur bo‘lgan energiya va protein yetishmovchiligi yuzaga keladi. Shu bilan birga, mikroelementlar iste‘moli ham qisqaradi, bu esa organizmning umumiy salomatligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Daromadning kamayishi odamlarning qo‘shimcha daromad topishiga majbur bo‘lishiga olib keladi, natijada uy xo‘jaliklarida parvarish va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish sifati pasayadi. Ayniqsa, bolalar va qariyalar yetarlicha parvarish ololmaydi. Sog‘liqni saqlash va ta‘limga ajratiladigan mablag‘lar qisqaradi, bu esa kasalliklarning tez-tez takrorlanishi va og‘ir kechishiga sabab bo‘ladi.




4-rasm. O‘zbekistonda o‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi (choraklik, ming so‘m)²³.

4-rasmda O‘zbekistondagi o‘rtacha hisoblangan ish haqining o‘shish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rish mumkin. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan 2025-yil uchun minimal iste‘mol xarajatlari miqdori kishi boshiga oyiga 669 ming so‘m etib belgilandi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakatimiz aholisining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kam ta‘minlangan qatlamdagi oilalarni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo yurtimizdagi ushbu minimal iste‘mol xarajatlari miqdorini xalqaro me‘yorlar bilan taqqoslanganda muayyan tafovutlar mavjud. Birlashgan Millatlar Tashkilotining tasnifiga ko‘ra, kambag‘allik chegarasi quyi-o‘rta daromadli mamlakatlar uchun (O‘zbekiston ushbu mamlakatlar ro‘yhatiga kiradi) kuniga 3,65 AQSh dollari miqdorida belgilangandir. Hozirgi valyuta kursi bo‘yicha bu miqdor qariyb 47 ming so‘mga teng bo‘ladi. Demak, xalqaro mezonlar asosida hisoblaydigan bo‘lsak, oyiga 1,41 million so‘mdan kam daromadga ega bo‘lgan shaxslar kambag‘allik darajasida bo‘lishi ehtimoli yuqori bo‘ladi.

²³ Ushbu rasm muallif tomonidan Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.



5-rasm. Oziq-ovqat narxlari oshishining uy xo'jaliklarining iste'moliga ta'siri²⁴.

Tadqiqotimizning ushbu qismi O'zbekiston bo'ylab uy xo'jaliklari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga asoslanadi. Dastlabki ma'lumotlar to'plami 609 ta javobni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, ma'lumotlarni filtrlash jarayonidan keyin (ya'ni to'liq bo'lmagan yoki noto'g'ri to'ldirilgan javoblar chiqarib tashlanganidan keyin), yakuniy tahlil uchun 610 ga yaqin uy xo'jaligi ishtirok etdi.

So'rovnoma ma'lumotlari quyidagi asosiy ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi: oilaviy oylik daromad (3 million UZS gacha, 3-5 million UZS, 5 million UZS va undan ko'p), oziq-ovqat xarajatlarining daromaddagi ulushi (30 % gacha, 35-45 %, 50-75 %, 80 % dan yuqori), oziq-ovqat tanqisligi (Hech qachon – 65 %, Ba'zan – 25 %, Doimo – 10 %), to'yib ovqatlanmaslik holati (Yo'q – 80 %, Ha – 20 %), sifatsiz oziq-ovqat iste'moli (Hech qachon – 55 %, Ba'zan – 35 %, Doimo – 10 %), oziq-ovqat xavfsizligi bahosi (1-5 ball, o'rtacha 3.5 ball), joylashuv (shahar – 60 %, qishloq – 40 %) va daromad barqarorligi (30 %). Tahlil yuqori daromadli uy xo'jaliklarida oziq-ovqat xarajatlari ulushining pastligi (30 % gacha), tanqislikning deyarli yo'qligi (80 % “Hech qachon”) va qishloq hududlarida tanqislikning yuqori ekanligini (45 % “Ba'zan” yoki “Doimo”) ko'rsatdi.

Ushbu mexanizm oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir qiluvchi beshta asosiy omilni ko'rib chiqadi: ovqatlanish sifati (OS), iqtisodiy imkoniyatlar (II), inflyatsiyaga bardoshlilik (IB), qashshoqlikning kamayishi (QK) va sog'liq hamda iqtisodiy samaradorlik (SO). Har bir omilning ta'siri so'rovnoma javoblarining foizli taqsimoti asosida hisoblanadi va umumiy ta'sirga nisbiy hissa sifatida normalizatsiya qilinadi. Ta'sir ulushlari quyidagicha aniqlandi:

²⁴ Mexanizm muallif izlanishlari asosida tayyorlandi.

Ovqatlanish sifati (OS): So‘rovnomada sifatli oziq-ovqatga e‘tiborli ekanligini bildirganlar 45 %ni tashkil etsa, sifatsiz mahsulot sotib olmaydigan respondentlar ulushi 55 %ga teng. Yuqori daromadli guruhda bu ko‘rsatkich 70 %ga yetadi, past daromadli guruhda esa 20 %. Daromad oshishi sifatli oziq-ovqat iste‘molini 20-30 % oshiradi.

Iqtisodiy imkoniyatlar (II): Oziq-ovqat xarajatlari daromadlarning 30 %gacha bo‘lgan uy xo‘jaliklari respondentlarning 20 %ni tashkil etadi, yuqori daromadli guruhlarda bu ko‘rsatkich 70 %. Bundan yuqori daromad xarid qobiliyatini 25-35 % yaxshilashini ko‘rishi mumkin.

Inflyatsiyaga bardoshlilik (IB): Barqaror daromad 30 % uy xo‘jaliklarida qayd etilgan, 60 %dan ortiq respondentlar oziq-ovqat tanqisligiga duch kelmaganliklarini ta‘kidlaganlar. Daromadlardagi barqarorlik oziq-ovqat xavfsizligini 10-15 % mustahkamlaydi.

Qashshoqlikning kamayishi (QK): Tanqislik yo‘qligi 65 %, to‘yib ovqatlanmaslikning yo‘qligi 80 %. Yuqori daromad tanqislikni 15-20% ga kamaytiradi.

Sog‘liq va iqtisodiy samaradorlik (SO): Oziq-ovqat xavfsizligini 4-5 ball bilan baholaganlar 40 %, kuniga 3-4 marta ovqatlanadiganlar 75 %. Daromad oshishi sog‘lom ovqatlanishni 15-20 % oshiradi.

Umumiy ta‘sir ulushlari (OS: 30 %, II: 35 %, IB: 15 %, QK: 20 %, SO: 20 %) 120 %ni tashkil qiladi. Ushbu ulushlar 100 %ga normalizatsiya qilinib, har bir omilning nisbiy ta‘siri 0-1 shkalasida quyidagi intervallar sifatida aniqlandi.

2-jadval

Oziq-ovqat xavfsizligiga ta‘sir etuvchi omillar harakati intervali²⁵

| | | |
|------------|-----------------------------------|--------------------------|
| I | Ovqatlanish sifati | $0,17 \leq OS \leq 0,31$ |
| II | Iqtisodiy imkoniyatlar | $0,21 \leq II \leq 0,28$ |
| III | Inflyatsiyaga bardoshlilik | $0,09 \leq IB \leq 0,13$ |
| IV | Qashshoqlikning kamayishi | $0,11 \leq QK \leq 0,15$ |
| V | Sog‘liq va iqtisodiy samaradorlik | $0,16 \leq SO \leq 0,19$ |

Hisoblash jarayoni oddiy foizli taqsimotga asoslanadi: har bir omilning ta‘siri so‘rovnoma javoblaridan kelib chiqib hisoblanadi va umumiy ta‘sirga nisbiy hissa sifatida taqsimlanadi. Biz foydalangan normalizatsiya formulasi quyidagicha:

$$\text{Nisbiy ta'sir} = \frac{\text{omilning ta'sir ulushi}}{120} * 100 \quad (1)$$

Iqtisodiy tahlilda omillarning ta‘sirini foizli ulushlar orqali hisoblash va normalizatsiya qilish keng tarqalgan. Masalan, Amartya Sen o‘zining oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha ishida (1981, “Poverty and Famines”) daromad, iqtisodiy imkoniyatlar va taqsimotning oziq-ovqat iste‘moliga ta‘sirini tahlil qiladi. Ushbu formuladagi normalizatsiya (120 %dan 100 %ga) Senning omillarni nisbiy ahamiyatga ko‘ra taqsimlash g‘oyasiga nisbat qilib olingan.

Dissertatsiya ishining “**O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari**” deb nomlangan uchinchi bobida aholining yetarli oziq-ovqat sotib olish qobilayitini qo‘llab-quvvatlashning va oziq-ovqat narxlari barqarorligini ta‘minlashning davlat siyosati o‘rganilgan hamda

²⁵ Jadval muallif tomonidan tayyorlandi.

aholi daromadlari o'zgarishi va oziq-ovqat xavfsizligini o'rtasidagi bog'liqlikni ekometrik baholangan. Shuningdek, O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning o'rta va uzoq muddatli davrga mo'ljallangan muqobil ssenariylik prognozlarini ishlab chiqilgan.

Modeldagi mustaqil o'zgaruvchi (oziq-ovqat xavfsizligi) ikkilik tabiatga (binary) ega bo'lganligi sababli (1 = oziq-ovqat xavfsiz emas, 0 = oziq-ovqat xavfsiz), tadqiqotimizda logistik regressiya modeli (logit modeli) qo'llanishini aytib o'tildi. Bu ekonometrik model chiziqli ehtimollik modeliga (LPM) qaraganda ancha afzal, chunki ushbu model bashorat qilingan ehtimoliy natijalarning 0 va 1 oralig'ida qolishini ta'minlaydi hamda mustaqil o'zgaruvchilarimiz bilan oziq-ovqat xavfsizligi ehtimoli o'rtasidagi noxiziqli bog'liqlikni yaxshiroq modellashtiradi.

Logit modelimizning umumiy ifodalanishi quyidagicha:

$$\Pr(\text{oziq} - \text{ovqat xavfsiz emas} = 1) = \frac{e^{\beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \dots + \beta_n X_n}}{1 + e^{\beta_0 + \beta_1 X_1 + \beta_2 X_2 + \dots + \beta_n X_n}} \quad (2)$$

Bu yerda:

$\Pr(\text{oziq-ovqat xavfsiz emas}=1)$ – uy xo'jaligining oziq-ovqat xavfsiz emasligi ehtimoli;

X_i – barcha mustaqil o'zgaruvchilarni ifodalaydi;

β_0 – shartli boshlang'ich qiymat;

β_i – har bir mustaqil o'zgaruvchining koeffitsiyenti;

E – xatolik komponenti.

Modelimizning baholash shakli quyidagicha yoziladi:

$$\log\left(\frac{\Pr(\text{oziq-ovqat xavfsizligi}=1)}{\Pr(\text{oziq-ovqat xavfsizligi}=0)}\right) = \beta_0 + \beta_1(\text{daromadlar kategoriyasi}) + \beta_2(\text{oziq} - \text{ovqat xarajatlari ulushi}) + \beta_3(\text{oila a'zolar soni}) + \beta_4(\text{daromad o'zgaruvchanligi}) + \beta_5(\text{past sifat oziq} - \text{ovqat xaridi}) + \varepsilon \quad (3)$$

3-jadval

Logit modeli natijalari²⁶

| O'zgaruvchilar | Koeffitsiyent (Coef.) | Standart xato (Std. Err.) | z qiymati (z) | P>z | 95 % ishonch oralig'i (Conf. Interval) | |
|--------------------------------|-----------------------|---------------------------|---------------|-------|--|----------|
| Daromadlar kategoriyasi (DK) | -0.8012495 | 0.218332 | -3.67 | 0.000 | -1.2291 | -0.37332 |
| Oziq-ovqat xarajatlari ulushi | -0.2758486 | 0.086580 | -3.19 | 0.001 | -0.4455 | -0.10615 |
| Oila a'zolar soni | 0.306032 | 0.237587 | 1.29 | 0.198 | -0.1596 | 0.771695 |
| Daromad o'zgaruvchanligi | 0.0223165 | 0.232910 | 0.1 | 0.924 | -0.4341 | 0.478813 |
| Past sifatli oziq-ovqat xaridi | -1.61117 | 0.194159 | -8.3 | 0.000 | -1.9917 | -1.23062 |
| Constant (_cons) | 0.8157633 | 0.964233 | 0.85 | 0.398 | -1.0741 | 2.705627 |
| Likelihood Ratiochi2(5): | 112.34 | | | | | |
| Prob > chi2: | 0.0000 | | | | | |
| Log likelihood: | -320.56888 | | | | | |
| Pseudo R2: | 0.2191 | | | | | |

Ushbu tenglamamizdagi log-odds logarifmik ehtimollar nisbatini ifodalaydi va tanlangan tushuntiruvchi omillarning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini aniqlashga yordam beradi.

²⁶ Logit modeli natijalari muallif tomonidan Stata 15 dasturida bajarildi.

Ushbu tadqiqotimizda biz oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarni logistik regressiya modeli yordamida tahlil qildik. Tahlilimiz 610 ta xonadon a'zolari orasida olib borilgan so'rovnoma natijalariga asoslangan bo'lib, asosiy o'zgaruvchi omillar daromadlar darajasi, oziq-ovqat xarajatlarining umumiy daromaddagi ulushi, oila a'zolari soni, daromadlar darajasining o'zgaruvchanligi va past sifatli kaloriyasiz mahsulotlar xaridlarini o'z ichiga oladi. Ehtimollik nisbatining χ^2 ($\chi^2 = 112.34$, $p < 0.001$) mezoni modelimizning umumiy statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini tasdiqlasa, pseduo R^2 (0.2191) esa modelimizda qamrab olinmagan qo'shimcha omillar ham oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, yuqori daromadli xonadonlarning oziq-ovqat xavfsizligi muammolariga duch kelish ehtimoli ancha past. Yuqori daromadli oilalar uchun koeffitsiyent manfiy (-0.801, $p < 0.001$)ga teng bo'lib, bu uy xo'jaliklarining daromadi oshgani sayin oziq-ovqat xavfsizligi ehtimoli kamayishini ko'rsatadi.

Model va olingan natijalarning ishonchliligini tekshirish.

Multikollinearlik tahlili (VIF natijalari).

Regressiya modelimizda multikollinearlik mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash uchun Variance Inflation Factor (VIF) testini o'tkazdik.

4-jadval

Multikollinearlik tahlili (VIF natijalari)²⁷

| O'zgaruvchi | VIF | 1/VIF |
|--------------------------------|------|--------|
| Daromadlar kategoriyasi | 1.05 | 0.9495 |
| Oziq-ovqat xarajatlari ulushi | 1.04 | 0.9598 |
| Oila a'zolar soni | 1 | 0.9956 |
| Daromad o'zgaruvchanligi | 1.02 | 0.98 |
| Dast sifatli oziq-ovqat xaridi | 1.03 | 0.9755 |
| O'rtacha VIF | 1.03 | - |

Multikollinearlik baholash mezonlari.

Agar $VIF < 5$ bo'lsa \rightarrow Multikollinearlik mavjud emas.

Agar VIF 5-10 orasida bo'lsa \rightarrow O'rtacha multikollinearlik bor.

Agar $VIF > 10$ bo'lsa \rightarrow multikollinerlik jiddiy muammo tug'dirmoqda.

Olingan natijalarga ko'ra, barcha o'zgaruvchilarimizning VIF qiymati 1.00-1.05 oralig'ida, bu esa modelimizdagi omillar o'rtasida multikollinearlik muammosi yo'qligini ko'rsatadi. Gujarati (2003) ta'kidlaganidek, VIF ko'rsatkichi 1-2 oralig'ida bo'lsa, multikollinearlik jiddiy xavotirga sabab bo'lmaydi²⁸. Shu sababli, mavjud model barqaror va ishonchli deb baholanadi. Biz olgan o'rtacha VIF 1.03 ga teng bo'lib, bu modelimizning yaxshi tayyorlanganligini, barcha o'zgaruvchilar erksiz o'zgaruvchiga mustaqil ravishda ta'sir ko'rsatayotganligini hamda natijalarimiz ishonchli va interpretatsiya qilishga yaroqli ekanligini bildiradi.

²⁷ Muallif tomonidan Stata 15 dasturida bajarildi.

²⁸ Gujarati D.N. Basic Econometrics. 4th Edition, McGraw-Hill. – New York, 2003.

Pearson chi-kvadrat testi natijalari.

Modelimizning tanlangan ma'lumotlarga mos kelishini baholash uchun Pearson chi-kvadrat testidan foydalandik. Ushbu testning asosiy maqsadi model natijalari bilan haqiqiy ma'lumotlar orasidagi farqlarni o'lchash va modelimizning qanchalik to'g'ri ekanligini aniqlashdan iborat. Olingan test natijalari quyidagicha:

5-jadval

Pearson chi-kvadrat testi natijalari²⁹

| | |
|-------------------------------|--------|
| Kuzatuvlar soni | 609 |
| Kovariat kombinatsiyalar soni | 50 |
| Pearson chi ² (44) | 40.91 |
| Prob > chi ² | 0.6050 |

Pearson testining asosiy gipotezasi quyidagicha:

Nol gipoteza (H_0): Model ma'lumotlarga mos tushadi, ya'ni kutilgan va kuzatilgan qiymatlar orasida sezilarli farq yo'q.

Alternativ gipoteza (H_1): Model ma'lumotlarga mos kelmaydi, ya'ni model noto'g'ri spetsifikatsiya qilingan yoki muhim omillar hisobga olinmagan.

Pearson chi-kvadrat testining qiymati 40.91, p-qiymati esa 0.6050 bo'lib, u 0.05 dan yuqori. Bu natija shuni anglatadiki, modelimizning ma'lumotlarga mos kelishini rad etish uchun yetarli asos yo'q. Shunday qilib, model yaxshi moslangan va tayyorlangan deb hisoblashimiz mumkin.

Oziq-ovqat sifatini oshirish oziq-ovqat miqdorini oshirish bilan birga ko'rib chiqilishi lozim. Chunki past sifatli mahsulotlar og'ir oziq-ovqat yetishmovchiligining oldini olsa-da, yashirin ochlik va to'yib ovqatlanmaslik xavfini oshirishi mumkin.

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kelajakdagi rejalar va maqsadlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida (BRM) alohida o'rin egallaydi. Xususan, 2030-yilgacha ocharchilikni bartaraf etish, barcha aholining barqaror oziq-ovqat manbalariga ega bo'lishini ta'minlash hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmogda. FAO, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qishloq xo'jaligi texnologiyalarini modernizatsiya qilish, fermerlarga subsidiyalar ajratish, resurslardan samarali foydalanish kabi yo'nalishlar ustuvor vazifa sifatida belgilangan³⁰.

O'zbekiston ham oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qator strategik rejalarini ishlab chiqmogda. Xususan, 2030-yilgacha qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, hosildorlikni oshirish, suv resurslaridan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda aholini arzon va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha milliy dasturlar amalga oshirilmogda. Davlat dasturlariga ko'ra, yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, issiqxona xo'jaliklarini kengaytirish hamda ekologik toza dehqonchilik usullarini rivojlantirishga urg'u berilmogda.

Global ochlik indeksi (GOI) bo'yicha prognozlash O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini tahlil qilish va kelajak strategiyalarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. GOI odatda uch asosiy omilni qamrab oladi: aholining ovqatlanish darajasi,


²⁹ Muallif tomonidan Stata 15 dasturida bajarildi.

³⁰ Food and Agriculture Organization (FAO) (2022). The State of World Fisheries and Aquaculture: Towards Blue Transformation. FAO.

bolalar orasida to‘yib ovqatlanmaslik va bolalar o‘lim darajasi³¹. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha so‘nggi yillarda ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Biroq hali ham ba‘zi muammolar mavjud bo‘lib, ular, asosan, oziq-ovqat mahsulotlarining narxlari barqarorligi, importga bog‘liqlik va qishloq hududlarida yetarli darajadagi ta‘minot bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha bir qator takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish hamda aqlli qishloq xo‘jaligi tizimlarini rivojlantirish lozim. Ikkinchidan, kichik fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash va ularga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlikni oshirish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, ichki bozor barqarorligini saqlash uchun oziq-ovqat mahsulotlarini zaxiralash tizimini kuchaytirish lozim. Bundan tashqari, aholining oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash uchun suv resurslaridan samarali foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish zarur³².

Yuqoridagi strategiyalarni amalga oshirish natijasida O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanib, 2030-yilga kelib GOI ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanishi kutilmoqda. Shu bilan birga, Jahon banki tahliliga ko‘ra, xalqaro hamkorlik va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar mamlakatning uzoq muddatli oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha strategiyasini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi³³.



6-rasm. Global ochlik indeksining ekstrapolyatsiya usulida olingan prognoz natijalari³⁴.

Prognoz natijalariga ko‘ra, Global ochlik indeksi (GOI) yillar davomida pasayib boradi. 2008-yildan 2023-yilgacha bo‘lgan ma‘lumotlar GOI ning barqaror kamayib kelayotganini ko‘rsatadi. 2024-yildan keyin esa prognoz qilingan qiymatlar taqdim etilgan. 2024-yil uchun GHO 4,68 deb baholangan bo‘lib, bu tendensiya davom etsa, 2030-yilga borib 3,65 gacha tushishi kutilmoqda. Bu oziq-ovqat xavfsizligining yaxshilanayotganini, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi, aholi daromadlari va oziq-ovqat ta‘minoti tizimlari rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

³¹ Grebmer, Klaus & Bernstein, Jill & Wiemers, Miriam & Schiffer, Tabea & Hanano, Asja & Towey, Olive & Chéilleachair, Réiseal & Foley, Connell & Gitter, Seth & Ekstrom, Kierstin & Fritschel, Heidi & Delgado, Caroline & Smith, Dan. (2023). 2021 Global Hunger Index.

³² <https://www.undp.org/uz/uzbekistan>

³³ <https://www.worldbank.org/en/news/press-release/2023/10/04/world-bank-fall-2023-regional-economic-updates>

³⁴ Natijalar muallif tomonidan Stata 15 dasturi yordamida hisoblandi.

Endi esa yuqoridagi prognoz natijalarini yanada aniqligini kuzatish maqsadida VAR modelida ham prognoz qilib ko‘ramiz. Bunda model quyidagi tenglamalar asosida tuziladi:

$$GOI_t = \alpha_1 + \beta_{21}GOI_{t-1} + \beta_{12}dlaholidaro_{t-1} + \varepsilon_{1t} \quad (3.4)$$

$$dlaholidaro_t = \alpha_2 + \beta_{21}GOI_{t-1} + \beta_{22}dlaholidaro_{t-1} + \varepsilon_{2t} \quad (3.5)$$

Bu yerda:

GOI (*Global Hunger Index*) — mamlakatdagi oziq-ovqat xavfsizligi darajasini ifodalovchi kompleks ko‘rsatkich. Past qiymat yaxshi oziq-ovqat xavfsizligini bildiradi.

dlnaholidaro — aholi jon boshiga real daromad o‘zgarishi, foiz yoki logarifmik o‘zgarish shaklida.

α (*alfa, konstanta*) — modeldagi doimiy a‘zo bo‘lib, barcha omillar nolga teng bo‘lganda, natijaviy o‘zgaruvchining o‘rtacha boshlang‘ich darajasini bildiradi.

β (*beta, koeffitsiyent*) — mustaqil o‘zgaruvchining natijaviy o‘zgaruvchiga ta‘sir kuchi va yo‘nalishini ko‘rsatuvchi parametr. β musbat bo‘lsa — ta‘sir ijobiy, manfiy bo‘lsa — salbiy.

ε (*epsilon, qoldiq*) — model bilan tushuntirilmagan tasodifiy omillar ta‘siri (xatolik). Bu stoxastik shovqin yoki o‘lchash xatolari bo‘lishi mumkin.

GOI pasayishi oziq-ovqat xavfsizligi yaxshilanayotganini bildiradi, ammo iqtisodiy inqirozlar, iqlim o‘zgarishlari, siyosiy beqarorlik va oziq-ovqat narxlarining oshishi kabi omillar bu tendensiyaga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, uzoq muddatli prognozlarning ishonchligi pasayib boradi. Shu sababli, bu natijalarga ehtimoliy tendensiya sifatida qarash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

6-jadval

VAR modeli uchun optimal lag uzunligini aniqlash natijalari³⁵

| Lag | LL (Log-likelihood) | LR (Likelihood ratio test) | df | P-qiymat | FPE (Final Prediction Error) | AIC (Akaike) | HQIC (Hannan-Quinn) | SBIC (Schwarz) |
|-----|---------------------|----------------------------|----|----------|------------------------------|--------------|---------------------|----------------|
| 0 | -84.17 | - | - | - | 104776 | 17.234 | 17.1676 | 17.2945 |
| 1 | -70.5438 | 27.252* | 4 | 0.000 | 15852.6 | 15.3088* | 15.1096* | 15.4903* |
| 2 | -69.1167 | 2.8541 | 4 | 0.583 | 31095.5 | 15.8233 | 15.4914 | 16.1259 |
| 3 | -65.7317 | 6.7701 | 4 | 0.149 | 56375.5 | 15.9463 | 15.4816 | 16.3700 |

VAR modeli uchun optimal lag uzunligini aniqlash maqsadida bir nechta tanlov mezonlari qo‘llanildi. Likelihood Ratio (LR) testi, Akaike Axborot Kriteriyasi (AIC), Hannan-Quinn Kriteriyasi (HQIC) va Schwarz Bayes Kriteriyasi (SBIC) natijalari quyidagicha baholandi.

Shunday qilib, ushbu natijalar asosida VAR modeli uchun optimal lag uzunligi 1 ekanligi aniqlanadi. Bu natija statistik va iqtisodiy nuqtayi nazardan ham asosli bo‘lib, o‘rganilayotgan tizimning dinamikasini yetarlicha ifodalash imkonini beradi³⁶.

³⁵ Natijalar muallif tomonidan Stata 15 dasturi yordamida hisoblandi

³⁶ Enders, W. (2014). *Applied Econometric Time Series*. Wiley.

7-jadval

VAR modeli yordamida hisoblandan regressiya tenglamasi natijalari³⁷

| Tenglama | Parms | RMSE | R-sq | chi2 | P>chi2 |
|---|----------|-----------|--------|----------|-------------------------|
| GOI | 3 | 0.212822 | 0.9838 | 787.1316 | 0.00 |
| dlnaholidaro | 3 | 544.627 | 0.747 | 38.38908 | 0.00 |
| Koeffitsiyentlar va statistik tahlil (GOI) | | | | | |
| Variable | Coef. | Std. Err. | z | P> z | [95% Conf. Interval] |
| GOI | | | | | |
| L1. | -252.313 | 109.3451 | -2.31 | 0.021 | -466.625 to -38.00015 |
| dlnaholidaro | | | | | |
| L1. | 0.521948 | 0.232295 | 2.25 | 0.025 | 0.0666572 to 0.9772382 |
| _cons | 2567.124 | 1006.586 | 2.55 | 0.011 | 594.251 to 4539.997 |
| Koeffitsiyentlar va statistik tahlil (aholi daromadi) | | | | | |
| O'zgaruvchi | Coef. | Std. Err. | z | P> z | [95% Conf. Interval] |
| GOI | | | | | |
| L1. | 0.840002 | 0.042728 | 19.66 | 0.00 | -0.7562557 to 0.9237479 |
| dlnaholidaro | | | | | |
| L1. | 6.03E-05 | 9.08E-05 | 0.66 | 0.007 | -0.0001176 to 0.0002382 |
| _cons | 0.5367 | 0.39334 | 1.36 | 0.172 | -0.2342326 to 1.307633 |

Model natijalari shuni ko'rsatadiki, ochlik indeksi (GOI) o'zining oldingi qiymatlari bilan kuchli bog'liqlikda bo'lib, R-kvadrat 0.9838 ga teng. Bu esa modelning yuqori darajadagi mosligini tasdiqlaydi. RMSE 0.2128ga teng bo'lib, olib borilayotgan prognozimiz xatosi kichikligini bildiradi. Chi-kvadrat testi 787.13 va P-qiymati 0.000 bo'lib, modelimizning statistik ahamiyati yuqorilgini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, model ochlik indeksini prognoz qilishda yuqori aniqlikka ega, ammo aholi daromadining ta'sirini aniqlash uchun yanada chuqurroq tahlillar talab etiladi. Ma'lumotlar hajmini kengaytirish va qo'shimcha omillarni inobatga olish natijalarning aniqligini oshirishga yordam berishi mumkin.

8-jadval

VAR modeli barqarorligini eigenvalue baholash natijalari³⁸

| Eigenvalue | Modulus |
|------------|----------|
| 0.7813719 | 0.781372 |
| 0.5805775 | 0.580578 |

VAR modeli barqaror, chunki barcha eigenvalue'lar birlik doirasi ichida joylashgan. Bu model prognoz qilish uchun yaroqli ekanligini ko'rsatadi.

9-jadval

VAR modeli barqarorligini eigenvalue baholash natijalari³⁹

| Lag | Chi2 | df | Prob > Chi2 |
|-----|--------|----|-------------|
| 1 | 1.4561 | 4 | 0.83440 |
| 2 | 1.2640 | 4 | 0.86746 |

P-qiymatlar yuqori ($p > 0.05$), bu H_0 hipotezasini rad etishga asos yo'qligini bildiradi. Demak, modelda avtoregressiv qoldiqlar aniqlanmagan.

³⁷ Natijalar muallif tomonidan Stata 15 dasturi yordamida hisoblandi

³⁸ Natijalar muallif tomonidan Stata 15 dasturi yordamida hisoblandi

³⁹ Natijalar muallif tomonidan Stata 15 dasturi yordamida hisoblandi

VAR modeli barqarorligini baholash natijalari⁴⁰

| Equation | Excluded | Chi2 | df | Prob > Chi2 |
|--------------|--------------|---------|----|-------------|
| EstimatedGOI | dincper | 0.44103 | 1 | 0.507 |
| EstimatedGOI | ALL | 0.44103 | 1 | 0.507 |
| dlaholidaro | EstimatedGHI | 5.3245 | 1 | 0.021 |
| dlaholidaro | ALL | 5.3245 | 1 | 0.021 |

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, GOI o'zining kelajakdagi o'zgarishlarini asosan mustaqil ravishda belgilaydi, ya'ni uning dinamikasi ichki omillar bilan bog'liq. Biroq, jadvaldan ko'rishimiz mumkinki daromadlar darajasi omilining unga ta'siri vaqt o'tishi bilan ko'proq ta'sir ko'rsata boshlaydi.

VAR modelida GOIning aholi daromadi ta'sirida o'zgarishini baholash natijalari⁴¹

| Step | FEVD (GOI → GOI) | FEVD (dlaholidaro → GOI) |
|------|------------------|--------------------------|
| 0 | 0 | 0 |
| 1 | 1 | 0 |
| 2 | 0.987237 | 0.012763 |
| 3 | 0.97252 | 0.02748 |
| 4 | 0.960471 | 0.039529 |
| 5 | 0.951651 | 0.048349 |
| 6 | 0.945533 | 0.054467 |

Uzoq muddatda esa aholi daromadlarining GOIga ta'siri asta-sekin ortib boradi, shu sababli bu ta'sir ahamiyatli ko'rinishga ega bo'lib boradi. Bu esa shuni anglatadiki, global ochlik indeksi (GOI) ning kelajakdagi holatini asosan boshqa omillar shakllantiradi va daromad o'zgarishlari esa ma'lum darajada ortib boruvchi ta'sirga ega bo'ladi.

Ushbu natijalarni boshqa tadqiqotlar bilan solishtirganda, oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi bog'liqlikni tasdiqlovchi ko'plab ilmiy ishlarni ko'rish mumkin. Masalan, FAO tadqiqotlariga ko'ra, aholining jon boshiga daromadining o'sishi oziq-ovqat xavfsizligining yaxshilanishiga yordam beradi, ammo bu jarayon institutsional omillar va ijtimoiy siyosatlarga ham bog'liq⁴². Ghosh va Arkadashlari esa rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish hamda oziq-ovqat ta'minoti o'rtasidagi bog'liqlikni empirik ravishda o'rganib, yuqori daromadga ega guruhlarda bu ta'sir kuchliroq ekanligini aniqlagan⁴³.

GOI ko'rsatkichining 2010-2024 yillar davomida 11,38 dan 4,68 gacha pasayishi oziq-ovqat xavfsizligining yaxshilanganidan dalolat beradi. Ushbu


⁴⁰ Natijalar muallif tomonidan Stata 15 dasturi yordamida hisoblandi

⁴¹ Natijalar muallif tomonidan Stata 15 dasturi yordamida hisoblandi

⁴² FAO (2023). The State of Food Security and Nutrition in the World. Food and Agriculture Organization.

⁴³ Ghosh S., Raychaudhuri A. & Dutta S. Economic Growth and Food Security in Developing Nations // Journal of Development Economics, 2021. – № 145. – P. 102-113.

dinamikani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, dastlabki yillarda pasayish tez sur‘atda kechgan bo‘lsa, 2016-yildan keyin sekinlashish tendensiyasi kuzatilgan. 2025-2029 yillarga mo‘ljallangan prognozga ko‘ra, GOI ning pasayishi davom etadi, biroq o‘zgarishlar nisbatan kichik bo‘lib, 2029-yilga kelib 4.57 darajasiga yetishi kutilmoqda.



6-rasm. VAR modeli prognozi natijalari⁴⁴

VAR modeli asosida olingan natijalar ushbu nazariy tamoyillarni tasdiqlaydi. Inahilodaro (aholi jon boshiga daromad)ning o‘shishi GOI ni pasaytirishga yordam bergan bo‘lsa-da, uzoq muddatda bu ta‘sir cheklangan. Ushbu tendensiya, Laborde va Martin tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga mos keladi, ularning tadqiqotida iqtisodiy o‘shishning o‘zi oziq-ovqat xavfsizligini to‘liq ta‘minlamasligi va boshqa tarkibiy omillar, jumladan, qishloq xo‘jaligi siyosati va ijtimoiy himoya tizimlari muhim rol o‘ynashi ta‘kidlangan⁴⁵.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, GHI ko‘rsatkichining pasayishi ijobiy tendensiya bo‘lsa-da, uning uzoq muddatli barqarorligi uchun iqtisodiy o‘shishdan tashqari boshqa omillar, xususan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash tizimi va oziq-ovqat ishlab chiqarish mexanizmlarining samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, faqat jon boshiga daromadning o‘shishiga tayanish yetarli emas, balki kompleks yondashuv talab etiladi.

O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, ijtimoiy himoya dasturlarini kuchaytirish va oziq-ovqat importi hamda eksporti balansini optimallashtirish choralari ko‘rildi. Bu strategiyalar xalqaro tadqiqotlar natijalari bilan uyg‘un bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash nafaqat iqtisodiy o‘shishga, balki infratuzilmaviy rivojlanish va agrar sohadagi innovatsiyalarga ham bog‘liq ekanini tasdiqlaydi⁴⁶.

Shunday qilib, biz olingan GOI prognoz natijalari O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi borasida ijobiy tendensiyalar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Biroq bu jarayonni yanada tezlashtirish va mustahkamlash uchun qishloq xo‘jaligi

⁴⁴ Natijalar muallif tomonidan Stata 15 dasturi yordamida hisoblandi

⁴⁵ Laborde D. & Martin W. Agricultural Productivity and Food Security: The Role of Economic Policies // World Bank Policy Research Working Paper, 2022.

⁴⁶ FAO (2023). The State of Food Security and Nutrition in the World. Food and Agriculture Organization.

samaradorligini oshirish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish hamda davlat tomonidan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash yanada zarur.

XULOSA

1. Oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq iqtisodiy omillarni baholash natijalari shuni ko‘rsatadiki, uy xo‘jaliklarining daromad darajasi, daromadlarning barqarorligi, oziq-ovqatga sarflanadigan mablag‘ ulushi va uy xo‘jaligi tarkibi ushbu muhim ijtimoiy-iqtisodiy jarayonga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

2. Logistik regressiya natijalari uy xo‘jaliklarining daromadlari ortishi bilan oziq-ovqat xavfsizligi darajasi yaxshilanishini tasdiqladi. Ayniqsa, yuqori daromadga ega bo‘lgan uy xo‘jaliklari oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga va miqdoriga kamroq cheklovlar bilan yondashish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shu bilan birga, uy xo‘jaligi daromadining katta qismini oziq-ovqat xarajatlariga ajratishga majbur bo‘lishi oziq-ovqat tanqisligi ehtimolini oshirishi kuzatildi.

3. Uy xo‘jaligi tarkibi ham muhim omil bo‘lib, oiladagi a‘zolar sonining ortishi oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Yirik oilalar orasida moliyaviy bosim yuqoriligi sababli oziq-ovqat ta‘minoti zaiflashishi mumkin. Bundan tashqari, daromadlarning beqarorligi oziq-ovqat tanqisligini kuchaytirishi aniqlangan bo‘lib, bu holat uy xo‘jaliklari uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda barqaror daromad manbalarining muhimligini ko‘rsatadi.

4. Tahlil natijalari uy xo‘jaliklari past sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini muntazam sotib olishi oziq-ovqat tanqisligi ehtimolini oshirishini ko‘rsatdi. Moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan oilalar yuqori sifatli va to‘yimli mahsulotlardan voz kechishga majbur bo‘lishlari mumkin, bu esa uzoq muddatda ularning sog‘lig‘i va oziq-ovqat xavfsizligi darajasiga salbiy ta‘sir qiladi.

5. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mamlakatda oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining o‘zgarishi, aholi daromadlari dinamikasi va import hajmlarining ortishi oziq-ovqat xavfsizligi indekslariga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, global oziq-ovqat bozoridagi tendensiyalar va iqlim o‘zgarishlari O‘zbekistonning ichki bozoriga ham ta‘sir qilmoqda.

6. Prognoz natijalari shundan dalolat beradiki, iqtisodiy islohotlar doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi bevosita aholi daromadlarining barqaror o‘sishi va ichki ishlab chiqarish hajmlarining ortishiga bog‘liq.

7. Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar natijalari shundan dalolat beradiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha kompleks strategiyani amalga oshirish ham makroiqtisodiy, ham mikroiqtisodiy darajada muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu jarayonning uzoq muddatli ta‘sirini yanada chuqurroq o‘rganish hamda innovatsion yondashuvlar orqali oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga qaratilishi lozim.

8. Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va muvozanatli ovqatlanishni ta‘minlash bo‘yicha davlat dasturlarini kengaytirishni tavsiya etish mumkin. Shu sababli, davlat tomonidan aholini sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha o‘qitish dasturlari tashkil etilishi, shuningdek, bolalar va yoshlar guruhida muvozanatli ovqatlanishni ta‘minlash uchun maktab hamda bog‘chalarda maxsus ovqatlanish dasturlari joriy etilishi lozim. Ushbu dasturlar nafaqat aholi sog‘ligini yaxshilaydi, balki uzoq muddatda sog‘liqni saqlash xarajatlarini kamaytiradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/30.01.2021.I.16.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ШОМУРОДОВ ТОХИР БОЙМУРОД УГЛИ

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЛИЯНИЯ ИЗМЕНЕНИЯ ДОХОДОВ
НАСЕЛЕНИЯ НА ПРОДОВОЛЬСТВЕННУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ**

08.00.01 – Экономическая теория

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией за B2025.2.PhD/Iqt.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Абдуллаев Суюн Артикович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Набиев Элшод Ганиевич
доктор экономических наук, профессор

Муродова Нодира Куллиевна
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

Международный Нордический Университет

Защита диссертации состоится «19» 08 2025 года в 12:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.01.2021.I.16.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100003, г.Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99872) 239-28-72; faks: (99872) 239-01-49, (99872) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный номер №175). Адрес: 100066, г.Ташкент, ул. Ислама Каримова. Тел.: (99872) 239-88-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «4» 08 2025 года.
(Реестр протокола рассылки № 81 от «4» 08 2025 года).



С.К. Худайкулов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

Б.Э. Мамарахимов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, к.э.н.,
профессор

У.В. Гафуров
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации на соискание степени доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации.

Согласно последнему докладу Продовольственной и сельскохозяйственной организации (ФАО) о продовольственной безопасности и состоянии питания во всем мире, в 2024 году от 713 до 757 миллионов человек столкнулись с проблемой голода. Эти цифры означают, что примерно каждый одиннадцатый человек в мире и каждый пятый в Африке сталкивается с проблемой продовольственной безопасности. Кроме того, около 2,4 миллиарда человек испытали нехватку продуктов питания, измеряемую средним или тяжелым уровнем продовольственной безопасности. Среди них около 900 миллионов человек сталкиваются с тяжелой нехваткой продовольствия⁴⁷.

В условиях растущих интеграционных процессов в глобальном масштабе вопрос обеспечения продовольственной безопасности приобретает все большую актуальность. Различные экологические, климатические и экономические факторы влияют на процессы производства, распределения и потребления продовольствия, создавая угрозу стабильности мирового продовольственного снабжения. Поэтому научные исследования, связанные с продовольственной безопасностью, сосредоточены на таких важных аспектах, как обеспечение населения стабильными источниками продовольствия, снижение неравенства в уровне питания и сокращение бедности. Такие вопросы, как устойчивое развитие сельского хозяйства, оптимизация цепочек производства и поставок продовольствия, внедрение инновационных технологий в сельское хозяйство, стимулирование производства экологически чистой и органической продукции, снижение влияния глобального изменения климата и стихийных бедствий на продовольственное обеспечение, являются приоритетными направлениями исследований в этом направлении.

Показатели потребления продуктов питания на душу населения в Узбекистане различаются по разным категориям продукции. Анализ показывает, что потребление муки и хлебобулочных изделий, насыщенных жиров, поваренной соли, сахара и мяса выше среднеазиатского и глобального уровня. Однако было установлено, что потребление бобовых и зерновых продуктов, фруктов и ягод, а также орехов ниже рекомендуемой нормы. Согласно отчетам Всемирной организации здравоохранения и Программы развития Организации Объединенных Наций, скрытые расходы, вызванные недоеданием в Узбекистане, составляют 7,3 триллиона сумов, что в среднем в 3,5 раза выше⁴⁸. Учитывая вышеуказанные проблемы, в Узбекистане в области продовольственной безопасности ведется работа по удовлетворению потребностей социально уязвимых слоев населения в продуктах питания,

⁴⁷ <https://www.un.org/ru/global-issues/food>

⁴⁸ Указ Президента Республики Узбекистан от 16.02.2024 г. No УП-36 «О дополнительных мерах по обеспечению продовольственной безопасности в республике» // <https://www.lex.uz/docs/-6802687>

повышению покупательной способности населения, повышению эффективности сельского хозяйства и развитию производства конкурентоспособной продовольственной продукции. Кроме того, реализуются такие задачи, как повышение культуры здорового питания населения, снижение себестоимости продуктов питания, усиление взаимосвязи между медицинскими услугами и качеством питания, а также широкое внедрение научных подходов в обеспечении продовольственной безопасности.

Закон Республики Узбекистан от 3 февраля 2025 года № ЗРУ-1023 «О продовольственной безопасности», Постановление Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2024 года № УП -36 «О дополнительных мерах по обеспечению продовольственной безопасности в Республике», Постановление Президента Республики Узбекистан от 29 марта 2021 года № ПП-5041 «О дополнительных мерах по обеспечению продовольственной безопасности», Постановление Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № УП-158 «Об стратегии Узбекистан – 2030», Постановление Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 27 августа 2021 года № 544 «О введении в практику порядка расчета минимальных потребительских расходов», Постановление Президента Республики Узбекистан от 23 октября 2019 года № УП-5853 «Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы», Постановление Президента Республики Узбекистан от 26 апреля 2018 года № УП-3680 «О дополнительных мерах по совершенствованию деятельности фермерских, дехканских хозяйств и владельцев приусадебных земель», а также другие нормативно-правовые акты, относящиеся к данной сфере, определяют задачи, выполнение которых в определенной степени будет способствовать настоящему диссертационному исследованию.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Анализ влияния доходов населения на продовольственную безопасность в Узбекистане является одним из актуальных вопросов не только с точки зрения обеспечения стабильности национальной экономики, но и с точки зрения предоставления населению качественных и достаточных продуктов питания. Одним из ключевых направлений обеспечения продовольственной безопасности является стимулирование внутреннего производства, повышение эффективности местного сельскохозяйственного сектора и увеличение уровня продовольственной самообеспеченности.

В этом направлении важное место занимают исследования многих ученых-экономистов как на мировом, так и на национальном уровне. Западные ученые Т.Мальтус, А.Сен, Э.Энгель, В.Тарасук, Т.Рearдон, П.Матлон, Т.Маслоу, Г.Максвелл внесли огромный вклад в развитие исследований в этом направлении⁴⁹.

Исследования по данной теме изучались многими учеными стран СНГ, в частности такими российскими экономистами, как Л.И.Абалкин, А.И.Алтухов, С.Ю.Глазьев, А.Г.Папцов, А.И.Трубилин, И.Г.Ушачев, Н.Д.Аварский, А.Н.Герасимов, Е.В.Закшевская, А.Д.Котенев, Б.Мельников, П.В.Михайлушкин, В.И.Нечаев, А.Л.Полтарьхин, М.В.Сулейманов, И.Ф.Суханова, В.И.Трысячный, В.Я.Узун, Л.Н.Усенко, А.В.Харламов, М.А.Холодова, которые внесли значительный вклад в формирование теоретических и практических основ поддержки сельскохозяйственного производства и обеспечения продовольственной безопасности⁵⁰.

⁴⁹ Мальтус Т.-Р. Опыт закона о народонаселении / Издание К.Т.Солдатенкова / Перевод И.А.Вернера. – М.: Типо-литография О.И.Лашкевич и Ко. Тверская, Домъ Саввинского подворья, 1895. – С. 9-12; Daniel G. Maxwell, Measuring food insecurity: the frequency and severity of “coping strategies” // *Food Policy*, 1996. Volume 21. Issue 3. – P. 291-303. ISSN 0306-9192 // [https://doi.org/10.1016/0306-9192\(96\)00005-X](https://doi.org/10.1016/0306-9192(96)00005-X); Maslow A.H. A theory of human motivation // *Psychological Review*, 1943. – № 50 (4). – P. 370-396 // <https://doi.org/10.1037/h0054346>; Reardon T. and Matlon P.M. (1989) ‘Seasonal Food Insecurity and Vulnerability in Drought-Affected Regions of Burkina Faso’ in D. Sahn (Ed.), *Causes and Implications of Seasonal Variability in Household Food Security*, Johns Hopkins University Press, Baltimore MD. Tarasuk V., J.Cheng, C.De Oliveira, N.Dachner, C.Gundersen and P.Kurdyak. 2015. “Association between Household Food Insecurity and Annual Health Care Costs // *Canadian Medical Association Journal*, 2015. – № 187 (14). E 429-E 436 // <https://doi.org/10.1503/cmaj.150234>; Engel E. (1857). *Die Productions- und Consumptionsverhältnisse des Königreichs Sachsen*. Zeitschrift des Statistischen Bureaus des Königlich Sächsischen Ministeriums des Innern; Sen A. *Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation*. – Oxford: Oxford University Press, 1981.

